


“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “ 1 ” aprel dagi
51.3sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
Boshqaruv raisi v.b



**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning korrupsiyaga oid
huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy
tekshiruvlar o'tkazish to'g'risidagi Nizom**
(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026



“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel 573 9-dagi
sonli qaroriga
ilova

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning korrupsiyaga oid
huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy
tekshiruvlar o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy tekshiruvlar o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi dunyoning yetakchi amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari–foydalanish bo‘yicha talab va tavsiyalar” xalqaro standart talablari va tavsiyalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi boshqa normativ hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori, “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi hamda ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari, shuningdek bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi ichki hujjatlari va odob-axloq qoidalari buzilganligi yuzasidan bank xodimlariga nisbatan rasmiy tekshiruvlar o‘tkazish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

rasmiy tekshiruvlar – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va bankning ichki hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari buzilishi faktlari, holatlari, sabablari va shartlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bankning ichki hujjatlari va (yoki) qonun hujjatlarida belgilangan axloqiy normalarga muvofiq o‘tkaziladigan tadbirlar;

pora – bank xodimi tomonidan shaxsan yoki vositachi orqali moddiy boyliklarni noqonuniy qabul qilib olishi yoki pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab

bajarganligi yoki bajarmaganligi uchun mulkiy foyda olishi, o'zining xizmat lavozimidan foydalangan holda amalga oshirishi kerak bo'lgan yoki amalga oshirishi mumkin bo'lgan muayyan harakat;

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (keyingi o'rinlarda - KQND) – bankda korrupsiyaga qarshi nazoratni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmasi;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiya jinoyati – qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan korrupsiya belgilariga ega bo'lgan xatti-harakat;

ishchi guruh – Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti direktorining taklifiga asosan bank Boshqaruvi raisi buyrugi bilan rasmiy tekshiruvlarni o'tkazish uchun tuzilgan guruh;

reyestr – Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti va ishchi guruh tomonidan otkazilgan tekshiruvlar ro'yhati;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (KQKT) – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, xodimlarning yuqori darajadagi kasbiy va axloqiy faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

ISO 37001:2016 standarti - ISO 37001:2016 xalqaro standart talabi va tavsiyalari "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari – foydalanish bo'yicha talab va tavsiyalar" (keyingi o'rinlarda — Standart ISO 37001:2016).

2-bob. Asosiy maqsadlar, vazifalar va tamoyillar

4. Mazkur Nizomning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- bankdagi rasmiy tekshiruvlarga yagona yondashuvni o'rnatish;
- rasmiy tekshiruvlar natijalari va hujjatlashtirish jarayoniga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- bank faoliyatida bank obro'siga zarar yetkazuvchi qonunbuzarliklar sabablari va shartlarini aniqlash va bartaraf etish;

- bank tomonidan qabul qilingan ichki hujjatlardagi kamchiliklar va nazorat choralari aniqlash va kelgusidagi buzilishlarning oldini olish maqsadida ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- bank va uning xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bankning ichki hujjatlarini buzish xatarlarini minimallashtirish.

5. Rasmiy tekshiruvlar o'tkazishda bank quyidagi asosiy tamoyillarga amal qiladi:

- qonun ustuvorligi;
- xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi;
- fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlar ustuvorligi;
- rasmiy tekshiruvlar davomida olingan ma'lumotlar va materiallarning maxfiyligi;
- rasmiy tekshiruvlarni o'tkazishda ochiqlik va shaffoflik, halollik, kollegiallik, betaraflik va xolislik;
- izchillik;
- korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvor yo'nalishlari;
- korrupsiyaga nisbatan murosasizlik;
- javobgarlikning muqarrarliligi;
- rasmiy tekshiruvlar o'tkaziladigan xodimlarning aybsizlik prezumpsiyasi.

3-bob. Korrupsiya oid huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy tekshiruvlarni o'tkazish uchun asoslar

6. Quyidagi manbalardan olingan potensial qoidabuzarlik to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan rasmiy tekshiruvlarni o'tkazish uchun asos hisoblanadi:

- Kuzatuv kengashi va bank Boshqaruvining ko'rsatmasi;
- aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar (shu jumladan, anonim murojaatlar);
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;
- ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan ma'lumotlar;
- o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar, jumladan ijtimoiy va statistik tadqiqotlar;
- Markaziy bank va davlat boshqaruv organilaridan olingan ma'lumotlar;
- buxgalteriya hujjatlarida korrupsiya alomatlari aniqlanganligida;
- ichki audit tekshiruvi davomida korrupsiya holatlari aniqlanganligida;
- tashqi audit tekshiruvi davomida korrupsiya holatlari aniqlanganligida;

· KQND xodimlari tomonidan o'z vazifalarini kundalik bajarishlari davomida olingan ma'lumotlar.

7. Bank xodimlari mazkur Nizomning 6-bandida nazarda tutilgan manbalardan olingan, bankdagi korrupsiya holatlari va odob-axloq buzilishi bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni zudlik bilan KQNDga taqdim etishi shart. Olingan ma'lumotlarni qayta tekshirish va amalga oshirilishi lozim bo'lgan choralarni belgilash yuzasidan KQND tomonidan tegishli ma'lumotlar vakolat doirasida Boshqaruv raisi, uning o'rinbosari yoki Kuzatuv kengashiga kiritiladi.

Bank sirini tashkil etmaydigan, korrupsiya holatlari haqida bo'yicha tasdiqlangan va qayta tekshirishni talab qilmaydigan (yoki qayta tekshirilgan) ma'lumotlar KQND tomonidan belgilangan tartibda zudlik bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

4-bob. Korrupsiya oid huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy tekshiruvlarning asosiy bosqichlari

8. Rasmiy tekshiruvlar quyidagi bosqichlardan iborat:

- dastlabki tekshiruv;
- rasmiy tekshiruvlar o'tkazilishi rejasini tuzish;
- rasmiy tekshiruvlar o'tkazish;
- rasmiy tekshiruvlarni yakunlash va rasmiy tekshiruvlar o'tkazilishi natijalari bo'yicha dalolatnomalar tuzish;
- rasmiy tekshiruvlar natijalari bo'yicha jazo va/yoki intizomiy choralar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va mazkur Nizomda ko'zda tutilgan choralarni ishlab chiqish va qo'llash.

§-1. Dastlabki tekshiruv

9. Mazkur Nizomning 6-bandida nazarda tutilgan manbalardan olingan har qanday ma'lumotlar yuzasidan KQND rasmiy tekshiruv o'tkazish uchun yetarli asoslar va ma'lumotlar mavjudligini, shuningdek ushbu ma'lumotlarning bank xodimlariga daxldor yoki daxldor emasligini aniqlash maqsadida dastlabki tekshiruv va tahlil o'tkazadi.

10. Dastlabki tekshiruv rasmiy tekshiruv hisoblanmaydi.

11. Dastlabki tekshiruv tegishli ma'lumot olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni davomida o'tkaziladi.

12. Dastlabki tekshiruv davomida holat yuzasidan bank xodimlari va boshqa shaxslar bilan suhbatlar o'tkazilishi, shuningdek boshqa tashkilotlardan qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlar so'rab olinishi mumkin.

13. O'tkazilgan dastlabki tekshiruv natijalariga ko'ra, olingan ma'lumotlar asosida xodimlarning xatti-harakatlarida korrupsiya bilan bog'liq qonun buzilishi alomatlari aniqlangan taqdirda, KQND rahbari rasmiy tekshiruv o'tkazish yoki

o'tkazmaslik to'g'risida qaror qabul qilish uchun Boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosariga bildirishnoma kiritadi.

14. Agar rasmiy tekshiruv Boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosarlariga nisbatan o'tkazilishi lozim bo'lsa, KQND rahbari bu haqda bank Kuzatuv kengashini yozma ravishda xabardor qiladi.

15. Zarurat tug'ilganda, rasmiy tekshiruvni o'tkazish uchun ishchi guruh tuzilishi mumkin.

16. Rasmiy tekshiruv o'tkazilishi to'g'risidagi bildirishnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- rasmiy tekshiruvning maqsadi;
- rasmiy tekshiruv uchun asos bo'lib xizmat qilgan sabab yoki vaziyat;
- rasmiy tekshiruv o'tkazilishiga sabab bo'lgan qoidabuzarlikni sodir etganlikda gumon qilinayotgan xodim(lar) (uning (ularning) F.I.O., lavozimi hamda bo'linma (boshqarma, bo'lim) nomi).

§-2. Rasmiy tekshiruvlar o'tkazilishi rejasini tuzish

17. Agar rasmiy tekshiruv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, KQND xodimlari rasmiy tekshiruv o'tkazish rejasini tuzadilar.

18. Rasmiy tekshiruvlar o'tkazish rejasi quyidagi ma'lumotlardan iborat bo'lishi kerak:

a) bevosita rasmiy tekshiruvlarni amalga oshiruvchi ishchi guruh tarkibi.

Ishchi guruh tarkibi kamida 3 (uch) nafar a'zodan iborat bo'lishi lozim, ulardan biri ishchi guruh rahbari etib belgilanadi.

Ishchi guruh tarkibiga KQND xodimi majburiy tartibda kiritiladi. Shuningdek, Ichki nazorat departamenti, Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti, Yuridik departamenti, Ichki audit departamenti hamda Bugalteriya departamenti xodimlari va xizmat tekshiruvining yo'nalishidan kelib chiqib boshqa bo'linmalar xodimlari ham kirishlari mumkin.

Ishchi guruh rahbari xizmat tekshiruvini tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish sifati, uning natijalari, xulosalari va takliflarining xolisligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

KQND rahbari rasmiy tekshiruvlarni o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibini shakllantiradi, tegishli buyruq loyihasini tayorlaydi va tasdiqlash uchun Boshqaruv raisiga kiritadi. Agar Boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosarlariga nisbatan o'tkazilishi zarur bo'lsa, ishchi guruh tarkibini shakllantirish masalasi Kuzatuv kengashi kotibiyatiga kiritiladi.

Ishchi guruh tarkibiga quyidagi shaxslar kiritilmaydi:

- rasmiy tekshiruv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan xodim;
- rasmiy tekshiruv o'tkazilishi belgilangan xodimning yaqin qarindoshlari;

- rasmiy tekshiruv o'tkazilishi belgilangan xodimning bevosita qo'l ostidagi xodimlar;

- rasmiy tekshiruv o'tkazilishi belgilangan xodimning bevosita rahbari;
- rasmiy tekshiruv natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan xodimlar (jumladan, birga o'qigan, ishqiy munosabatda bo'lgan yoki tekshiruv obyekti bilan ochiq ziddiyatga ega bo'lgan shaxslar va boshqalar);

- murojaati xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun asos bo'lgan xodimlar;

- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimlar;

b) rasmiy tekshiruvlar davomida olinadigan ma'lumotlar ro'yxati.

Rasmiy tekshiruvlar davomida ishchi guruh qonunbuzarliklar to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi va hujjatlashtiradi:

- qonunbuzarlikning yuzaga kelish sabablari;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda bankning ichki qoidalari talablari buzilgan normalar;

- qoidabuzarlik sodir etilgan vaqti, joyi va usuli;

- qoidabuzarlikda ishtirok etgan shaxslar (bank xodimlari, shuningdek uchinchi shaxslar);

- qoidabuzarlikning og'irlik darajasi;

- bankka yetkazilgan zararining turi va miqdori;

- zararining tabiati (moddiy va nomoddiy);

- qoidabuzarlik bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar;

d) rasmiy tekshiruvlar davomida olinadigan ma'lumot manbalari ro'yxati.

Quyidagilar rasmiy tekshiruvlar davomida olingan ma'lumot manbalari bo'lishi mumkin:

- rasmiy tekshiruv o'tkazilayotgan bank xodimlarining yozma tushuntirishlari;

- tasdiqlovchi hujjatlar (yozma va elektron shaklda);

- internet tarmoqlariga joylashtirilgan axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar;

- audioyozuvlar, foto va video tasvirlar;

- rasmiy tekshiruv bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq boshqa materiallar.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha manbalar, shu jumladan maxfiy ma'lumotlar, ishchi guruh tomonidan bankning ichki qoidalari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda olib qo'yilishi va ulardan foydalanilishi lozim.

Zaruratga ko'ra, bank xodimlari yoki boshqa jalb etilgan shaxslar bilan o'tkaziladigan suhbatlar audio/video qurilmalar orqali yozib olinishi, shunindek, tegishli hollarda ularning bayonnomasi rasmiylashtirilishi mumkin.

Rasmiy tekshiruvga jalb etilgan shaxslar audio/video yozuvlar amalga oshirilayotgani, ushbu yozuvlar rasmiy tekshiruv materiallariga ilova qilinishi hamda

ularning rozilgisiz ommaviy axborot vositalarda tarqatilmasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

Rasmiy tekshiruvlar davomida ishchi guruh a'zolari yoki begona shaxslarning shaxsiy audio/video yozish qurilmalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Tasmaga olish faqatgina bank hisobida bo'lgan qurilmalarda amalga oshiriladi. Yozuvlar rasmiy tekshiruv materiallariga ilova qilinadi.

Bank xodimlari yoki boshqa shaxslar rasmiy tekshiruvda ishtirok etishdan, intervyu yoki tushuntirishlar berishdan yoxud audio va video yozuvni amalga oshirishdan bosh tortgan hollarda bu haqda rad etish dalolatnomasi tuziladi. Agar bank xodimi yoki boshqa shaxs dalolatnomani imzolash zarurligi to'g'risida xabardor etilgan bo'lishiga qaramay, uni imzolashdan bosh tortsa, ishchi guruh tomonidan hujjatga rad etish qaydi kiritiladi (1-ilova).

Rasmiy tekshiruv o'tkazilayotgan xodimning dalolatnoma yoki boshqa hujjatlarni imzolashdan bosh tortishi uni tegishli javobgarlik choralari qo'llashdan ozod etmaydi.

§-3. Rasmiy tekshiruvlar o'tkazish

19. Rasmiy tekshiruv o'tkazish quyidagi harakatlarga imkon beradigan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdan iborat:

- voqealar xronologiyasini tiklash;
- qonunbuzarlik faktining mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash;
- qonunbuzarlikni sodir etishda qatnashuvchi shaxslarni aniqlash;
- qaysi qonunbuzarlik sodir etish imkoniyatiga olib kelganligini aniqlash;
- keyingi qonunbuzarliklarning oldini olish uchun qanday jazo va/yoki intizomiy choralar ko'rish kerakligini aniqlash.

20. Rasmiy tekshiruv bank Boshqaruvi raisi yoki uning o'rinbosari (yoki Kuzatuv kengashi) tomonidan rasmiy tekshiruv o'tkazishga rozilik berilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) ish kuni ichida o'tkazilishi lozim.

21. Agar rasmiy tekshiruvni o'tkazish qo'shimcha vaqtni talab etsa, ishchi guruh rahbari KQND rahbari bilan kelishgan holda rasmiy tekshiruv muddatini ko'pi bilan 15 (o'n besh) ish kuniga uzaytirishi mumkin.

22. Xodim rasmiy tekshiruv o'tkazilayotgan davrida bo'lmagan taqdirda (mehnat ta'tili, xizmat safari yoki mehnatga layoqatsizligi davri va boshqa hollarda), rasmiy tekshiruv vaqtincha to'xtatiladi. Bunda rasmiy tekshiruv muddati avtomatik ravishda xodimning ishda bo'lmagan davriga uzaytiriladi.

23. Agar xodim 30 (o'ttiz) kalendar kundan ortiq muddat davomida ishda bo'lmasa yoki rasmiy tekshiruvda ishtirok etishdan bosh tortsa, rasmiy tekshiruvni xodimning ishtirokisiz o'tkazish to'g'risida bank Boshqaruvi raisi yoki uning o'rinbosariga bildirgi kiritiladi. Agar rasmiy tekshiruv Boshqaruv raisi yoki uning

o'rinbosarlariga nisbatan o'tkazilayotgan bo'lsa, bunday holatda Kuzatuv kengashining roziligi olinadi.

24. Xodim rasmiy tekshiruv o'tkazilayotgan davrda xodimning bank binolariga va xizmat ma'lumotlariga kirishga nisbatan vaqtinchalik cheklovlar joriy etiladi. Zarurat tug'ilganda, xodimning bank binosiga kirishi ishchi guruh a'zolarining kuzatuv ostiga amalga oshiriladi.

Xodimga nisbatan joriy etilgan cheklovlar muddati rasmiy tekshiruv muddatidan oshmasligi lozim. Biroq, agar rasmiy tekshiruv materiallari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'rib chiqish yuborilgan bo'lsa, ushbu cheklovlar muddati tegishli tartibda uzaytirilishi mumkin.

§-4. Rasmiy tekshiruvlarni yakunlash va rasmiy tekshiruvlar o'tkazilishi natijalari bo'yicha dalolatnomalar tuzish

25. Rasmiy tekshiruvlar natijalariga ko'ra dalolatnoma tuziladi, ushbu dalolatnoma ishchi guruh rahbari, uning barcha a'zolari va unga nisbatan rasmiy tekshiruv o'tkazilayotgan xodim tomonidan imzolandi (2-llova).

26. Agar ishchi guruh a'zosi yoki unga nisbatan rasmiy tekshiruv o'tkazilgan shaxs dalolatnomani mazmuni yoki uning alohida bandlariga rozi bo'lmasa, u holda shaxslar dalolatnomani rasmiy tekshiruv masalalari bo'yicha maxsus fikr mavjudligi to'g'risidagi belgi bilan imzolashlari mumkin.

27. Rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma KQND rahbariga taqdim etiladi.

28. KQND rahbari rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnomani olgandan keyin uni bankning Odoq-axloq komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

Shuningdek, rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha bank Boshqaruvi raisi yoki uning o'rinbosariga bildirishnoma kiritadi.

§-5. Rasmiy tekshiruvlar natijalari bo'yicha jazo va/yoki intizomiy choralarni ishlab chiqish va qo'llash

29. Ishchi guruh korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yoki xodimlarning odoq-axloq qoidalarini buzilishini holatlarini tartibga solish bo'yicha tavsiyalar (mexanizmlar) ro'yxatini tuzadi. Shuningdek rasmiy tekshiruv o'tkazilgan xodimlarga nisbatan jazo yoki intizomiy choralarni ko'rish bo'yicha tavsiyalarni shakllantiradi va ularni bankning Odoq-axloq komissiyasi ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Odoq-axloq komissiyasi esa yakuniy qarorni ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan tavsiyalarni hisobga olgan holda qabul qiladi.

5-bob. Rasmiy tekshiruvda ishtirok etgan xodimlarning huquq va majburiyatlari

30. Rasmiy tekshiruvda ishtirok etgan xodimlar mazkur Nizomda belgilangan talablarga rioya etilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

31. Ishchi guruh rahbari rasmiy tekshiruvning samaradorligi va natijalari, shuningdek ishchi guruh a'zolari tomonidan mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga amal qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

32. Rasmiy tekshiruv davomida ishchi guruh rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- rasmiy tekshiruv yo'nalishlarini belgilaydi;
- ishchi guruh a'zolari oldiga vazifalar qo'yadi;
- ishchi guruh tomonidan rasmiy tekshiruv o'tkazilishini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi;
- ishchi guruh tomonidan mazkur Nizomga muvofiq rasmiy tekshiruv o'tkazilishini nazorat qilib boradi;
- suhbat davomida intervyu olish kerak bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzadi;
- rasmiy tekshiruv xolis va samarali o'tkazilishi uchun zarur chora-tadbirlar qabul qilinishini ta'minlaydi;
- rasmiy tekshiruv natijalarini KQND rahbari/Odob-axloq komissiya/Kuzatuv kengashiga taqdim etilishini ta'minlaydi.

33. Ishchi guruh rahbari va a'zolarining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- rasmiy tekshiruvlar o'tkazilishi davomida mazkur Nizom, bankning boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi;
- rasmiy tekshiruvning mohiyati bo'yicha barcha mavjud materiallarni to'plash, but saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash, tekshiruv natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslik;
- xizmat tekshiruvi o'tkazishning buyruq yoki farmoyishga muvofiq belgilangan muddatiga rioya etish;
- axborot (hujjatlar, elektron ma'lumotlar va h.k) yaxlitligini saqlash bo'yicha rasmiy tekshiruvlar uchun ahamiyatga ega chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- rasmiy tekshiruv jarayonida olingan axborotning maxfiyligi va oshkor etilmasligiga amal qilish, mazkur Nizom, bankning boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- tekshiruv natijalarini mazkur Nizom talablariga muvofiq rasmiylashtirish, shu jumladan javobgarlik choralari qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek qonunbuzarlikka olib kelgan sabab va holatlarni bartaraf etish choralari amalga oshirish;
- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodimni xizmat tekshiruvini o'tkazish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma bilan imzo qo'ydirib tanishtirishi, tanishish rad etilgan yoki tanishganlik to'g'risida imzo qo'yish rad etilgan taqdirda esa ishchi guruh a'zolari tomonidan imzolanadigan tegishli dalolatnoma tuzish.

34. Rasmiy tekshiruv o'tkazilishi davomida ishchi guruh rahbari va a'zolari quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- rasmiy tekshiruv ishtirokchilari hamda tekshiruv yuzasidan biror-bir ma'lumotdan xabardor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar bilan suhbat o'tkazish, yozma va og'izaki tushuntirish olish, bank binosiga va xizmat xonalariga erkin kirib chiqish, bank elektron ma'lumotlar bazasidan bevosita foydalanish, rasmiy tekshiruv jarayoniga uchinchi shaxslar, shuningdek ularning roziligi bilan tekshiruv mohiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tashqi ekspertlarni taklif qilish (uchinchi shaxslar va tashqi ekspertlarni jalb qilish masalasi o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi);

- agar rasmiy tekshiruv o'tkazish tayinlangan xodimning ish joyida hozir bo'lishi xizmat tekshiruviga xalaqit berishi mumkin deb taxmin qilish uchun asosli sabablar mavjud bo'lsa, xizmat tekshiruvi vaqtida xodimni ishdan chetlatish to'g'risida ish beruvchiga takliflar kiritish;

- intervyu bergan shaxsning yozma roziligi bilan audio/video yozish qurilmalari yordamida yozib olishni amalga oshirish;

- bank xodimlaridan rasmiy tekshiruvga tegishli bo'lgan hujjatlarni olish;

- xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun muhim bo'lgan hujjatlar bilan tanishish va zarurat bo'lganda ularning ko'chirma nusxalarini xizmat tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yish;

- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim foydalanadigan xizmat va ishlab chiqarish xonalarini, shu jumladan uning ish joyini, joy uchastkalarini, omborlarni, stollarni, javonlarni, papkalarni va maxfiy axborotni tashuvchi jism mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa predmetlarni ish beruvchining roziligi bilan ko'zdan kechirishni amalga oshirish, shuningdek ish beruvchidagi maxfiy axborot mavjud bo'lgan barcha jismlarni hamda ularning kelib tushishi va harakatlanishini aks ettiruvchi hisobga olish hujjatlarini (hisobga olish daftarlari va jurnallarini) ish beruvchining roziligi bilan tekshirish

- bank mulking yaxlitligini tekshirish va ro'yxatdan o'tkazish;

- rasmiy tekshiruv masalalari bilan bog'liq axborot va ma'lumotlar o'chirilmasligi to'g'risida tegishli xodimlarga yozma bildirishnomalar yuborish.

35. Rasmiy tekshiruvda ishtirok etuvchi xodimlar ishchi guruhga rasmiy tekshiruvni o'tkazishda har tomonlama yordam ko'rsatishlari, shu jumladan rasmiy tekshiruvni o'tkazish uchun zarur bo'lgan tushuntirishlar, ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishlari, ishchi guruh a'zolari tomonidan tashkil etilgan suhbatlarda ishtirok etishlari shart.

36. Rasmiy tekshiruvda ishtirok etuvchi xodimlar rasmiy tekshiruvda ishtirok etishlari munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emaslar.

37. Rasmiy tekshiruvda ishtirok etuvchi xodimlar quyidagi huquqlarga egadirlar:

- o'zi va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik;
- ishchi guruh rahbari va a'zolarining harakatlari (harakatsizligi) bo'yicha KQND rahbari va Odob-axloq komissiyasiga shikoyat qilish.

38. Xodimga nisbatan rasmiy tekshiruv o'tkazilayotganda quyidagi huquqlar beriladi:

- rasmiy tekshiruv faktidan xabardor bo'lish;
- komissiya a'zolarini rad etish to'g'risida arz qilishga;
- rasmiy tekshiruv jarayonida qonunbuzarlik sabablari va holatlari bo'yicha yozma va og'zaki tushuntirishlar berish hamda ularni tasdiqlaydigan dalillarni taqdim etish;
- tushuntirishlar berishni rad etish - bu holatda Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan dalolatnoma tuziladi;
- rasmiy tekshiruv yakunlanganligi to'g'risida bildirishnoma olish va KQND rahbari/Odob-axloq komissiyasi/Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishidan oldin rasmiy tekshiruv to'g'risidagi dalolatnomaning tegishli qismini (maxfiy ma'lumotlardan bundan mustasno) ko'rib chiqish.

39. Rasmiy tekshiruv natijalari, shu jumladan ishchi guruh tomonidan taklif qilingan rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha javobgarlik chorasidan norozi bo'lgan hollarda, xodim ushbu qaror ustidan bankning Odob-axloq komissiyasi/Kuzatuv kengashiga shikoyat qilish huquqiga ega.

40. O'ziga nisbatan rasmiy xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim o'ziga berilgan huquqlardan vijdonan foydalanishi, xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga monelik qilmasligi, shu jumladan xizmat tekshiruvda ishtirok etishdan bo'yin tovlamasligi, haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, boshqa g'ayriqonuniy harakatlar sodir etish yo'li bilan monelik qilmasligi shart.

6-bob. Rasmiy tekshiruvlarga tegishli hujjatlarni saqlash


41. Rasmiy tekshiruvda ishtirok etuvchi bank xodimlari tekshiruv davomida o'zlari bilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi shart (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

42. Ishchi guruh va KQND xodimlari rasmiy tekshiruv doirasida maxfiy ma'lumotlardan foydalanish huquqiga egadirlar.

43. Lavozim vazifalarini bajarish uchun bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan boshqa xodimlar KQND rahbarining yozma roziligini olishlari shart.

44. Rasmiy tekshiruv bilan bog'liq materiallar ishchi guruh rahbari tomonidan KQNDga taqdim etiladi, raqamlanadi va alohida yig'majildga tikiladi.

45. Olingan natijalar va qabul qilingan jazo yoki intizomiy choralar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar rasmiy tekshiruvlar reyestri/jurnaliga kiritiladi (3-Ilova).



46. Elektron shakldagi ma'lumotlar tarmoq diskidagi alohida papkada muddatsiz saqlanishi lozim. Ushbu papkadagi barcha fayllardan foydalanish huquqi faqat KQND rahbari va xodimlariga beriladi.

47. Qog'ozdagi rasmiy tekshiruv bilan bog'liq barcha hujjatlar, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, KQNDda tasdiqlangan kundan e'tiboran 10 (o'n) yil davomida saqlanishi shart.

7-bob. Yakuniy qoidalar

48. Mazkur Nizomda ko'zda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, bank ichki qoidalarida va bank vakolatli organlarining qarorlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

49. Mazkur Nizom bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

50. Mazkur Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

51. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli qoidalar ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

52. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

53. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2023-yil 15-sentabrdagi 132-2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va xodimlarning odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy tekshiruvlar o'tkazish to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami: VII-24/286) o'z kuchini yo'qotadi.

54. Har bir xodim ushbu Nizomga rioya qilish uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Shummi

Shummi



*“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning
korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar va xodimlarning
odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy
tekshiruvlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizomga
1-Ilova*

Rad etish dalolatnomasi

«__» _____ 20__ y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar,

(F.I.O., lavozimi)

(F.I.O., lavozimi)

(F.I.O., lavozimi)

Shu haqda ushbu dalolatnomani tuzdikki, «__» _____ 20__ yilda xodim (F.I.O., lavozimi)

sodir etilgan qoidabuzarlik bo‘yicha yozma tushuntirish berish taklif qilingandan so‘ng, yozma tushuntirishlar berishdan bosh tortdi

Xodim (to‘liq ismi sharifi, lavozimi) yozma tushuntirish berishni rad etish sabablarini quyidagicha tushuntirdi:

(tushuntirish berishni rad etish sabablarini erkin shaklda ko‘rsatilishi kerak)

Dalolatnoma tuzuvchi shaxslarning imzosi:

F.I.O.

Imzo

F.I.O.

Imzo

F.I.O.

Imzo

Dalolatnoma bilan tanishdim¹:

(F.I.O, lavozimi, sana, imzo)

¹Dalolatnomani imzolashni rad etganda, Ishchi guruh rahbari «imzolashni rad etdi» degan belgini kiritadi va uni o‘zi imzolaydi.



*"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankning
korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar va xodimlarning
odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy
tekshiruvlar o'tkazish to'g'risida"gi Nizomga
2-llova*

Rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma

Rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodim to'g'risidagi (*xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi, u bajarayotgan ish (egallagan lavozim), ushbu ish beruvchidagi ish staji, ilgari sodir etilgan intizomiy huquqbuzarliklar uchun intizomiy jazoning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlar*);

- tekshiruvini o'tkazgan ishchi guruh tarkibi to'g'risidagi;

- xizmat tekshiruvini o'tkazish asoslari haqidagi;

- xodim intizomiy qilmish sodir etganligi faktining mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi;

- intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar haqidagi;

- o'ziga nisbatan rasmiy xizmat tekshiruvi o'tkazilgan xodimning tushuntirishlarida ko'rsatilgan vajlar to'g'risidagi;

- xodimning intizomiy qilmish sodir etganligi holatlari va uning oqibatlari haqidagi;

- xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun uning aybdorligini tasdiqlovchi yoki istisno etuvchi materiallar to'g'risidagi;

- intizomiy qilmish sodir etilganligi natijasida xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori haqidagi (agar shunday zarar mavjud bo'lsa).

Dalolatnomadaning yakunlovchi qismida rasmiy tekshiruv natijalari bo'yicha xulosalar shakllantirilgan bo'lishi lozim.

Shuningdek, dalolatnomaning yakunlovchi qismida:

- xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi fakti tasdiqlangan taqdirda, xodimni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida, xodim ish beruvchiga haqiqatdan to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazganligi fakti aniqlangan taqdirda esa moddiy javobgarlikka ham tortish haqida ish beruvchiga yo'llangan takliflar, shuningdek mehnat intizomini kuchaytirishga, xodimlar tomonidan intizomiy qilmishlar sodir etishga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan, profilaktika xususiyatiga ega bo'lgan tavsiyalar bo'lishi;

- agar xizmat tekshiruvini o'tkazish natijasida xodimning intizomiy qilmish sodir etganligi faktining mavjud emasligi yoxud xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun aybi yo'q ekanligi aniqlansa, xodimga nisbatan asossiz shubhalanish uchun imkon bergan sabablar yoxud xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilayotgan haqiqiy sabablar ko'rsatilishi;

- agar komissiya xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun xodimning sha'niga, qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi noto'g'ri ma'lumotlar asos bo'lganligini aniqlasa, ushbu ma'lumotlarni rad etish haqidagi tavsiyalar bo'lishi;

- agar xizmat tekshiruvi natijalari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik yoxud jinoyat alomatlari aniqlansa, xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnomada tekshiruv materiallarini tegishli davlat organlariga yuborish haqidagi takliflar ko'rsatilishi lozim.

*“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning
korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va xodimlarning
odob-axloq qoidalariga nisbatan rasmiy
tekshiruvlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizomga*

3-Ilova

Ro‘yxatga olish kitobi / xizmat tekshiruvlari jurnali

№	Ro‘yxatga olish kitobi / xizmat tekshiruvlari jurnali	
1	Dastlabki tekshiruv natijalari	
2	Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqning raqami va sanasi	
3	Xizmat tekshiruvi tayinlangan xodimning F.I.O. va lavozimi	
4	Mas‘ul shaxslar (ishchi guruh tarkibi)	
5	Potensial qonun buzilish haqida ma‘lumot manbai	
6	Xizmat tekshiruvi o‘tkazish muddati	
7	Xizmat tekshiruvi natijalarining qisqacha tavsifi	
8	Aniqlangan qoyidabuzarliklar tavsifi	
9	Tekshiruv natijalariga ko‘ra ko‘rilgan choralar	